



## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI O‘XSHATISHLARNING MILLIY- MADANIY XUSUSIYATLARI

**JDPU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti:**

**Umarova Naima Abdusaidovna**

**Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD), dotsent**

**Jumayeva Feruza Uralovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshatishlarning milliy-madaniy xususiyatlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** Turg‘un o‘xshatishlar, metafora, tafakkur, tasavvur, milliy dunyoqarash.

Bugun zamonaviy tadqiqotlarda o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqiga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova o‘xshatishlarda muayyan xalqning milliy dunyoqarashi aks etishini ta’kidlab, bu fikrini rus, belorus, va qirg‘iz tilida qo‘llanuvchi o‘xshatish qurilmalari tahlili asosida dalillaydi. Uning fikriga ko‘ra, глаза блестящие как Иссык-Куль, стройный как мараль, сильный как Манас kabi qurilmalar qirg‘iz xalqining milliy dunyoqarashini aks ettiradi<sup>1</sup>. Maslova muayyan xalqning obrazli tafakkur tarzi xususan, o‘sha xalq tilida qo‘llanuvchi o‘xshatishlarda ham yaqqol namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi<sup>2</sup>. Olimaning bu fikrini o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar misolida tasdiq etishga urinib ko‘raylik. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da berilgan o‘xshatishlarda xalqning muayyan predmet, belgi, harakat-holatga ijtimoiy, psixologik, madaniy nuqtayi nazardan munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi namoyon bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek tilida fitomorfik metaforalar o‘zbek flora dunyosiga xos bo‘lgan o‘simlik nomlari bilan bog‘liq o‘xshatishlarni ifodalashga xizmat qiladi. M., *gulday go‘zal yuz, maysadek mayin qoshlar, g‘unchadek lablar* va hokazo. Ingliz tilida ham shunga o‘xshash misollar bisyor. Bunday o‘xshatishlarda

<sup>1</sup> Маслова В.А.Современные направления в лингвистике. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 272 с.

<sup>2</sup> Маслова В.А. Человек в зеркале сравнения // <http://www.gumer.info/biblioter-Burs/Linguist/maslova/06/php>.



belgi to'g'ridan to'g'ri yoki obrazlar vositasida ifodalanishi kuzatiladi. Masalan, *strong man* (kuchli erkak) misolida belgi to'g'ridan to'g'ri ifodalangan bo'lsa, *as strong as an oak* (*chinorday baquvvat*) misolida belgi obrazli ifodalangan. Ya'ni bunda tasavvurni boyitish, belgini kuchaytirish maqsadida chinorga xos xususiyatlardan foydalanilgan. Chinor kuchli o'qildiz, mustahkam tomirlar, ulkan shoxbutalarga ega. Shu kabi xususiyatlari tasavvurning yorqin ifodasiga xizmat qiladi. Ma'lumki, erkaklar kuchli fe'l-atvori, jismonan baquvvat ekanligi bilan chinorga o'xshatiladi. Chinorning tabiatan mustahkam, qalin, chayir qomatga ega bo'lishi ham o'xshatishning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. O'zbeklar chinorning uzoq umrli, sersoya katta daraxtligiga ishora qilib, *chinorday umr ko'rgin deya bir-birini duo qilishadi*. Xususan, Magar chinor bo'lsang, *chinorday yasha*, Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing (A.Oripov).

O'xshatishlarning yana bir turi qahramonlarning sifatlariga nisbatan hosil qilinadi. M., o'zbek o'g'lonlarining ijobiy xislatlarini *Alpdek, Alpomishdek, Rustami Dostondek* kabi o'xshatishlar bilan ham ifodalanishini ko'rishimiz mumkin.

Naturmorfik metaforalar ham o'xshatishlarni ifodalashda nihoyatda faol. O'z nomidan ko'rinib turganidek, ular tabiat bilan bog'liq bo'lgan nomlarni o'zida mujassam etadi. Masalan, oy, quyosh, yulduz, billur, dur, marvarid va shunga o'xshash predmetlar orqali nafaqat insonning tashqi qiyofasiga, balki ichki dunyosiga ham nisbat beriladi. Bunday baholash o'zbek tili metaforizatsiyasida nihoyatda keng uchraydigan hodisa. Jumladan, Ravshanbek zehni qo'yib qarasa, *yasangan hurday, tishlari durday, ko'zlari yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday, ikki yuzi oyday, tarlon-qarchig'ay uchadigan qushday, muhrlangan qog'ozday yalt-yult etib o'tiribdi*. (Ravshan, 55 b.) Ushbu jumlada keltirilgan dur, oy, yulduz kabi nomlar naturmorfik metafora turiga mansub o'xshatishlar sanaladi. Shuningdek, naturmorfik metaforalar tabiatda kamyob, yagona va qo'lyetmas samoviy jismlar: oy, quyosh, yulduz; qimmatbaho va nodir toshlar: oltin, kumush, billur, marvarid-dur; tabiat hodisalari: qor, yomg'ir, kamalak; makon va zamoni ifodalovchi so'zlar: kun, tun va hokazo nomemalar bilan bog'lanib insonning ichki va tashqi dunyosini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu o'xshatishlar nafaqat o'zbek tili lingvomadaniyatiga, balki ingliz lingvomadaniyatiga ham birday xos hisoblanadi. Xususan, *In olden times when wishing still*



helped one, there lived a king whose daughters were all beautiful, but the youngest was so beautiful that the sun itself, which has seen so much, was astonished whenever it shone in her face. (A fairy tale. *The Frog Prince*) jumlasida podshohning qizi nihoyatda go‘zal ekanligi, yuzlari *quyoshday* nur sochishi haqidagi o‘xshatish aks etgan. Shuningdek, qizlarning kulgusini tasvirlashda ham quyoshga murojaat qilingan, *her smile is as bright as the sun*. As cold as ice-muzday sovuq birikmasi orqali insonning holati ifodalanganini ko‘rishimiz mumkin. *She was as cold as ice when I tried to talk to her.* – U bilan suhbatlashishga harakat qilganimda u muzday qotib qolgan edi. O‘zbek tilida ham o‘xshatishning ushbu turi o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Muzday sovuq havo etni junjiktiradi. (Y.Sulaymon) As smooth as silk-ipakday mayin birikmasi orqali, asosan, ijobiy ma’no, ko‘proq ayollarga xos bo‘lgan go‘zallik ifodalanadi. *G‘uborsiz havolar ipakdek mayin... Shamol, senga qulluq, senga tashakkur!* (I.Mirzo. Qo‘qon shamoli). This lotion will leave your skin as smooth as silk-bu malham sizning teringizni ipakday mayin qiladi. As black as coal-ko‘mirday qora. O‘zbek tilida ushbu jumla asosan salbiy ma’noda, yuzning qoraligiga nisbatan ishlatiladi. *Yuzlari oftobda ko‘mirday qorayib ketgan, kalta soqoliga, qoshi va mo‘yloviga chang o‘tirib, kulrang tusga kirgan qirq besh yashar Brahmajit Gaur ta‘zimga bosh egdi.* (P.Qodirov. Humoyun va Akbar). Ingliz tilida esa ko‘zning qoraligiga nisbatan ijobiy bo‘yoqda ifodalanadi. *His eyes were as black as coal-Uning ko‘zlari ko‘mirdek qora. As fast as lightning-chaqmoqday tez holatni ifodalashda qo‘llaniladi. Tom was as fast as lightning in the running competition-Tom yugurish musobaqasida chaqmoqday tez yugurdi. Shine like the stars-yulduzday porlamoq* jumlasini ko‘proq mashhur bo‘lish, tanilish ma’nosini ifodalab kelgan. *She shines like the stars among her friends-* U do‘stlari orasida yulduzday porladi. *Sparkle like diamonds-olmoslar kabi yorqin* belgining darajasini kuchaytirish vazifasini bajaradi. *Grandma’s tooth sparkled like diamonds-buvimning tishlari olmos kabi yorqin.* O‘zbek tilida *vulqonday portlamoq, otilib chiqmoq* jumlasidan insonning turli, o‘ta tarang hissiy-ruhiy holatini ifodalash uchun foydalaniladi. *Ana shundagina ichidagi qattiq, juda qattiq o‘kirik kelib, vulqonday otilib chiqdi* (M.Hazratqulov. *Chiroq o‘chmagan kecha.*) Ushbu jumla ingliz tilida ham aynan shu ma’noda qo‘llanishini ko‘rish mumkin: *explode like a volcano-vilqonday otilmoq. Anger exploded like a volcano inside me-Ichimdagi g‘azab vulqonday otildi.*



Religiomorfik metaforalar orqali o'xshatishlarni izohlashda bevosita diniy qadriyatlar, mifik timsollar alohida ahamiyatga ega. Xususan, islom dinida *o'zini sodiqdek ko'rsatib, oxirat kuniga ishonmaydigan kimsaga o'xshab, mahrum bo'lgan kishidek* va boshqa shu kabi o'xshatishlar berilgan. Ingliz lingvomadaniyatida esa *angel* so'zi bilan bog'liq birikmalar keng qo'llanilgan. Masalan, *One morning in 1816 an Englishman with a godlike face and a deformed foot registered at a Belgian island, as soon as he reached his room fell like a thunderbolt upon the chambermaid.* (Peter Quekkel, *To die Dark Tower*, 67 b.) O'xshatishlar diniy qarashlar, xayoliy, afsonaviy qahramonlarga aylangan shaxs xususiyatlari, religiomorfik tushunchalarni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, *ka'badek muqaddas, jannatday xushmanzara, Samandardek o'lmaydigan, devday zabardast, murdaday oppoq, gadoday qashshoq, go'dakdek beg'ubor, avliyoday oqil, azroildek xunuk, arvohday ozg'in, farishtadek pok, kafanday sovuq, do'zaxday issiq, jahannamday qo'rqinchli, qabristonday/mozorday sokin, sharpaday sassiz, o'likday cho'zilmoq, zanjidek qora* sifatleri orqali o'xshatishlarning diniy qarashlar asosida paydo bo'lgan ma'no qirralari ifodalangan bo'lsa, dostonlarda keltirilgan *Alpomishday yigit, Rustami Dostonday zo'r, Alpday mard/pahlavon* kabi sifatlar orqali afsonaviy qahramonlarga aylangan shaxs nomlari keltirilgan. Ingliz tilida ham shu kabi diniy va afsonaviy turga mansub o'xshatishlarni ko'plab uchratish mumkin. *Herculian body, as black as Hamlet, the beauty of Madonna* kabilarni afsonaviy qahramonlarga misol qilsak, *as white as a ghost, as pale as death, as happy as an angel, as silent as the grave, like a devil* kabi o'xshatishlar ham tasavvur va tafakkur doirasini ochib beradi.

Xullas, o'xshatishlar muayyan xalqning diniy, milliy-madaniy, ruhiy tafakkur tarzini, tasavvur olamini, odam va olamga munosabatini ochib beruvchi muhim lingvomadaniy birliklardir.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 10-11
2. Маслова В.А.Современные направления в лингвистике. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 272 с.

Google  
Scholar

3. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. – М.: 2001.
4. Маслова В.А. Человек в зеркале сравнения // [http: / www gumer. Info / biblioter – Burs / Linguist / maslova / 06 / php](http://www.gumer.info/biblioter-Burs/Linguist/maslova/06/php).
5. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – С. 7. 45.
6. Яндашова Т.Р. Ўзбек ва инглиз тилларида “гўзаллик” концептининг ифодаланиши ва лингвопоетикаси, фил. фанлари бўйича фалсафа доктори дисс.автореф. - Тошкент: 2021. - 59б.